

**PAXTA TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MASALALARI**

**I.T.Qudratova**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali

**Annotatsiya:** Paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va tayyor mahsulot eksportini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar Paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Paxta- to‘qimachilik klasterlari, iqtisodiy diversifikatsiya, samaradorligini baholash mezonlari, Eksport salohiyati, Investitsiya samaradorligi.

**Abstract:** Strategic measures aimed at expanding the production capacity of cotton-textile clusters, developing the processing industry and increasing the export of finished products. Issues of increasing the efficiency of cotton-textile clusters are covered.

**Keywords:** Cotton-textile clusters, economic diversification, criteria for assessing efficiency, Export potential, Investment efficiency.

**Аннотация:** Стратегические меры, направленные на расширение производственных мощностей хлопчатобумажных кластеров, развитие перерабатывающей промышленности и увеличение экспорта готовой продукции. Рассмотрены вопросы повышения эффективности хлопчатобумажных кластеров.

**Ключевые слова:** Хлопчатобумажные кластеры, экономическая диверсификация, критерии оценки эффективности, экспортный потенциал, инвестиционная эффективность.

Paxta va unga bog‘liq mahsulotlarga bo‘lgan jahon talabi doimiy bo‘lib, yaxshi hosil olish uchun zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etishga undadi. Paxta-to‘qimachilik sanoati viloyatlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadigan asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha nafaqat xomashyo yetishtirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, balki eksport salohiyati, investitsion oqimlar va resurslardan foydalanish samaradorligini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Klasterlar faoliyati iqtisodiy diversifikatsiya, yangi ish o‘rinlari yaratish va hududiy integratsiya jarayonlarida hal qiluvchi ro‘l o‘ynamoqda.

So‘nggi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va tayyor mahsulot eksportini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda [1,5]. Xususan, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish, xorijiy bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va investitsiyalarni jalb etish orqali tarmoqning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada ortmoqda. Bu jarayonlar nafaqat viloyat iqtisodiyotida barqaror o‘sishni ta‘minlash, balki milliy iqtisodiyotning global bozorga integratsiya darajasini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, paxta-to‘qimachilik klasterlarining samaradorligini ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali baholash va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini belgilash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir [2,6]. Statistika ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirilgan empirik tahlillar va ekonometrik modellashtirish metodlari bu jarayonning kompleks mohiyatini ochib berish, istiqboldagi prognozlarni shakllantirish va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

***Paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligi*** – bu klasterlar ichidagi ishlab chiqarish korxonalarini, resurslar, logistika va bozor mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik orqali ishlab chiqarish hajmi, sifat, eksport salohiyati va iqtisodiy foydalilikni maksimal darajada ta‘minlash sifatida

tushuniladi. Samaradorlikni aniqlashda ishlab chiqarish hajmi va sifati, eksport salohiyati hamda iqtisodiy foydalilik asosiy mezon sifatida baholanadi.

Iqtisodiy samaradorlik formulasi quyidagicha:

$$E = \frac{F}{X}$$

Bu yerda:

F – sof foyda

X – umumiy xarajat

Rentabellik (foyda samaradorligi)

$$\text{Rentabellik} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xarajat}} * 100$$

Ishlab chiqarish samaradorligi

$$E = \frac{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi}}{\text{Sarflangan resurst}}$$

Shuningdek o‘shish surati:

$$\text{O‘shishdarajasi} = \frac{\text{Yangi ko‘rsatgich} - \text{Eski ko‘rsatgich}}{\text{Eski ko‘rsatgich}} * 100 \%$$

Bunday yondashuv klasterlarning nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasini ham ko‘rsatadi.

### **1-jadval**

#### **Paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini baholash mezonlari**

Samaradorlik mezonlari	Ko‘rsatkichlar
Ishlab chiqarish samaradorligi	Paxta tolasi va tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi

*ilmiy –amaliy anjuman*

Eksport salohiyati	Tayyor mahsulot va paxta matolarini xorij bozorlariga yetkazish qobiliyati va eksport hajmi
Resurslardan foydalanish samaradorligi	Xomashyo, mehnat resurslari va investitsiyalarni optimal ishlatish
Investitsiya samaradorligi	Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish liniyalari va qayta ishlash sanoatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarmoq samaradorligiga ta'siri
Hududiy iqtisodiy integratsiya	Klasterlar viloyat va milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog'langanligi, hududiy diversifikatsiya va barqaror o'sish darajasiga ta'siri

***Ishlab chiqarish samaradorligi*** – bu mezon klasterlarda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi va tayyor mahsulot hajmlari hamda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi orqali aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkich ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan qay darajada oqilona foydalanilayotganini, mahsulot tannarxi va sifatining o'zgarishini hamda texnologik jarayonlarning takomillashuvini baholash imkonini beradi.

***Eksport salohiyati*** – klasterlarning xalqaro bozorlarga chiqish qobiliyati va eksport hajmlarini ifodalaydi. Bu mezon tayyor mahsulot va paxta matolarining xorijiy bozorlarga yetkazilishi, mahsulot sifati, narx raqobatbardoshligi hamda eksport geografiasining kengayishi orqali baholanadi. Eksport salohiyatining yuqoriligi klasterlarning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan ulushini oshiradi va tashqi savdo balansini mustahkamlaydi.

**Resurslardan foydalanish samaradorligi** – ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, mehnat resurslari va jalb qilingan investitsiyalardan oqilona foydalanish darajasini ko'rsatadi. Ushbu mezon resurslarning isrof bo'lmasligini, energiya hamda moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanishni, shuningdek mehnat unumdorligi va kapital qo'yilmalarning qaytishini aniqlash imkonini beradi.

**Investitsiya samaradorligi** – klasterlarga jalb qilingan investitsiyalar, ularning texnologik yangilanish, ishlab chiqarish liniyalarini kengaytirish, innovatsion uskunalarni joriy etish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishdagi o'rni baholaydi. Bu ko'rsatkich investitsiyalar samaradorligi va ular orqali hosil bo'ladigan qo'shimcha iqtisodiy foydani tahlil qilishga xizmat qiladi.

**Hududiy iqtisodiy integratsiya** – klasterlarning viloyat iqtisodiyoti va milliy ishlab chiqarish tizimi bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi. Bu mezon klasterlarning hududiy diversifikatsiya jarayonlaridagi o'rni, boshqa tarmoqlar bilan kooperatsiyasi, yangi ish o'rinlari yaratishdagi samarasi hamda barqaror hududiy iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi orqali aniqlanadi [3,4,7]

Xulosa qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish nafaqat sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, balki hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jarayonda ekonometrik modellar qurish va ularni amaliyotga joriy etish klasterlarning samaradorligini ilmiy asosda baholash, kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilash va kompleks boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur shart hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Atajanova Guli Maxsudbekovna. Paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishining statistik ko'rsatkichlari tahlili. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>

2. Juraev F.D. (2021). Problems of informatization of management of agricultural industry and modeling of agriconomic system in a market economy. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(02), 49-54.
3. Chen F., Ahmad S., Jiang G., & Chen J. (2023). Factors affecting textiles products exports of major producers: A gravity model approach. *SAGE Open*, 13(4). <https://doi.org/10.1177/21582440231213688>
4. Bhuyan M.I., & Oh K.Y. (2021). Exports and inequality: Evidence from the highly concentrated textile and garment sector of Bangladesh. *Journal of South Asian Development*, 16, 293-309.
5. Kudratova, I. (2024). ПАХТА ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ ҚИЙМАТ ЯРАТИШ ЗАНЖИРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Economics and Innovative Technologies*, 12(2), 117-125.
6. Кудратова, И. Т. (2024). АГРОСЕРВИС ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 211-216.
7. Turdibaevna, K. I., & Vafohodzhaeva, D. M. (2023). INCREASING LIFE STANDARDS OF THE POPULATION AND SMALL ENTREPRENEURSHIP. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 120-126.